




Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi
(2021- yil yanvar-iyul)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yil yanvar-iyul oylarida viloyat korxonalari tomonidan 11 026,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 108,3 % ni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (95,1 %)ni tashkil etdi.



B–Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**–Ishlab chiqaradigan sanoat **D**–Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash, **E**–Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
sanoat ishlab chiqarish, FHI* % da




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatining - 8,5 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sanoatining - 24,1 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning -6,8 % ga o'sishi kuzatildi. Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining - 11,0 % ga pasayish kuzatildi.

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, %da



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 104,0 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi yanvar-iyul oylari, % da)




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-iyul	2021- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Chaqiq tosh, ming t.	169,4	133,3	- 36,1




Ishlab chiqaradigan sanoat
Yanvar-iyul oylarida



2021- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 10 480,8 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 95,1 % ini tashkil etdi.




Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, %da




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,3 % ni (2020- yilning yanvar-iyul oylarida - 0,6 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 17,5 % (17,7 %), o'rta-quyi texnologiyali - 15,1 % (14,2 %) va quyi texnologiyalisi – 62,2 % (62,2 %)ni tashkil etdi.


Yuqori texnologiyali




O'rta-yuqori texnologiyali



O'rta-quyi texnologiyali



Quyi texnologiyali



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 25,4 % (2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 122,6 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 35,1 % (2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 95,3 %), elektr uskunalari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 1,6 % (2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 108,8 %), asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 0,3 % (2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 43,5 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,0 % (2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 84,5 %)ni tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati, % da


2021- yilning yanvar-iyul oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 22,4 ming tonna tozalangan o'simlik yog'i (2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 1,2 martaga o'sgan), 102,4 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (0,6 %) ishlab chiqarishda pasayish kuzatildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Yumshoq bug'doy va spelta uni



O'simlik yog'i (tozalangan)



Aroq




Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-iyul	2021- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming tonna	19,6	28,0	8,4
Aroq – ming litr 100 % spirt	128,0	194,9	66,9
Konyak spirti – ming litr 100 % spirt	115,4	407,1	291,7
Vino, ming litr	516,2	470,0	-46,2
Un, ming tonna	103,0	102,4	-0,6
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna	18,9	22,4	3,5



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

2021- yilning yanvar-iyul oylarida




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 337,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (3,1 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-iyul oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 6,8 foizga oshganligi kuzatildi.



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi
(yanvar-iyul oylari, % da)






Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-iyul	2021- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	261,3	244,2	-17,1
Issiqlik energiyasi, ming gkal	548,7	3 969,0	3 420,3



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 103,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ini) tashkil etdi.




Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi (yanvar-iyul oylari, % da)

2020- yil % da



2021- yil % da




Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-iyul	2021- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	31,8	57,7	25,9
Oqava suvlarni shlami, mlrd.so'm	23,1	75,7	52,6
Qayta foydalanishga yaroqsiz boshqa xafsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	10,1	14,6	4,5
To'qimachilik chiqindilari, tonna	36,3	27,9	-8,4

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 81,0 % ga, oqava suvlarni ishlami 3,3 martaga hamda qayta foydalanishga yaroqsiz boshqa xafsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar 44,3 % ga oshganligi kuzatildi.



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 6 933,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 13,3 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 62,9 % ni tashkil etdi.



















Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 4,0 % (2020- yil yanvar-iyul oyida 5,3 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 41,9 % ni, shuningdek, Urgut tumani 12,4 % ni, Samarqand tumani 10,1 % ni, Toyloq tumani 7,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishida viloyatning o'sish sur'ati (113,3 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Paxtachi (372,3 %), Qo'shrobot (231,3 %), Toyloq (161,3 %), Kattaqo'rg'on (151,6 %), Narpay (132,8 %) hamda Nurobod (125,0 %) tumanlarida qayd etildi.




Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
 2021- yilning yanvar-iyul oyida

	<i>Mlrd. so'm</i> 2906,7	<i>Ulushi %da</i> 41,9	<i>O'sishi %da</i> 109,0		<i>Mlrd. so'm</i> 189,2	<i>Ulushi %da</i> 2,7	<i>O'sishi %da</i> 132,8
Samarqand sh.			Narpay				
	<i>Mlrd. so'm</i> 115,9	<i>Ulushi %da</i> 1,7	<i>O'sishi %da</i> 76,5		<i>Mlrd. so'm</i> 92,9	<i>Ulushi %da</i> 1,3	<i>O'sishi %da</i> 97,9
Kattaqo'rg'on sh.			Payariq				
	<i>Mlrd. so'm</i> 96,8	<i>Ulushi %da</i> 1,4	<i>O'sishi %da</i> 69,6		<i>Mlrd. so'm</i> 164,4	<i>Ulushi %da</i> 2,4	<i>O'sishi %da</i> 69,9
Oqdaryo			Pastdarg'om				
	<i>Mlrd. so'm</i> 138,9	<i>Ulushi %da</i> 2,0	<i>O'sishi %da</i> 106,6		<i>Mlrd. so'm</i> 206,7	<i>Ulushi %da</i> 3,0	<i>O'sishi %da</i> 372,2
Bulung'ur			Paxtachi				
	<i>Mlrd. so'm</i> 372,9	<i>Ulushi %da</i> 5,4	<i>O'sishi %da</i> 96,6		<i>Mlrd. so'm</i> 701,9	<i>Ulushi %da</i> 10,1	<i>O'sishi %da</i> 120,2
Jomboy			Samarqand				
	<i>Mlrd. so'm</i> 158,0	<i>Ulushi %da</i> 2,3	<i>O'sishi %da</i> 104,8		<i>Mlrd. so'm</i> 113,2	<i>Ulushi %da</i> 1,6	<i>O'sishi %da</i> 125,0
Ishtixon			Nurobod				
	<i>Mlrd. so'm</i> 247,1	<i>Ulushi %da</i> 3,6	<i>O'sishi %da</i> 151,6		<i>Mlrd. so'm</i> 857,3	<i>Ulushi %da</i> 12,4	<i>O'sishi %da</i> 109,5
Kattaqo'rg'on			Urgut				
	<i>Mlrd. so'm</i> 34,5	<i>Ulushi %da</i> 0,5	<i>O'sishi %da</i> 231,3		<i>Mlrd. so'm</i> 537,6	<i>Ulushi %da</i> 7,8	<i>O'sishi %da</i> 161,3
Qo'shrabot			Toyloq				

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 41,9 % ni, shuningdek, Urgut tumani 14,4 % ni, Samarqand tumani 8,5 % ni hamda Jomboy tumani 6,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Qo'shrabot (329,7 %), Paxtachi (236,5 %), Toyloq (206,7 %), Samarqand (144,9 %) hamda Oqdaryo (143,6 %) tumanlarida qayd etildi.


















Hududlar bo'yicha noziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
2021- yilning yanvar-iyul oylarida

	Mrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da
Samarqand sh.	1786,1	41,9	104,6	Narpay	110,0	2,6	122,6
Kattaqo'rg'on sh.	82,2	1,9	87,8	Payariq	45,9	1,1	58,7
Oqdaryo	64,5	1,5	143,6	Pastdarg'om	118,3	2,8	89,1
Bulung'ur	89,6	2,1	103,8	Paxtachi	73,9	1,7	236,5
Jomboy	254,8	6,0	89,4	Samarqand	360,4	8,5	144,9
Ishtixon	90,2	2,1	94,3	Nurobod	53,0	1,2	93,0
Kattaqo'rg'on	117,6	2,8	113,5	Urgut	612,8	14,4	106,4
Qo'shrabot	20,2	0,5	329,7	Toyloq	382,3	9,0	206,7

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 41,9 % ni, shuningdek, Samarqand tumani 12,8 % ni, Urgut tumani esa 9,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Paxtachi tumani (547,1 %), Kattaqo'rg'on tumani (217,9 %) hamda Payariq tumanida (280,3 %) qayd etildi.


Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2021- yilning yanvar-iyul oylarida)

	Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da
	1120,6	41,9	116,8		79,2	3,0	150,2
Samarqand sh				Narpay			
	33,7	1,3	58,2		47,1	1,8	280,3
Kattaqo'rg'on sh.				Payariq			
	32,3	1,2	34,3		46,2	1,7	45,0
Oqdaryo				Pastdarg'om			
	49,3	1,8	112,2		132,8	5,0	547,1
Bulung'ur				Paxtachi			
	118,1	4,4	116,9		341,5	12,8	101,9
Jomboy				Samarqand			
	67,8	2,5	123,0		60,2	2,3	178,2
Ishtixon				Nurobod			
	129,4	4,8	217,7		244,5	9,1	118,1
Kattaqo'rg'on				Urgut			
	14,3	0,5	163,0		155,3	5,8	104,6
Qo'shrabot				Toyloq			



















Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish
2021- yilning yanvar-iyul oylarida

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 4 561,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 41,4 % ni tashkil etdi.



**Hududlar kesimida
sanoat ishlab chiqarish hajmlari
2021- yilning yanvar-iyul oylarida**

	Mlrd. so'm			Ulushi %da			O'sishi %da		
	11 026,1			100,0			108,3		
ViLOYAT									
	Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		
	5188,8	47,1	110,7		293,9	2,7	104,9		
Samarqand sh.			Narpay						
	Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		
	162,9	1,5	82,4		204,3	1,9	114,0		
Kattaqo'rg'on sh.			Payariq						
	Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		
	226,3	2,1	110,1		366,9	3,3	101,5		
Oqdaryo			Pastdarg'om						
	Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		
	156,5	1,4	101,9		247,6	2,2	128,2		
Bulung'ur			Paxtachi						
	Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		
	1104,3	10,0	96,7		910,3	8,3	114,1		
Jomboy			Samarqand						
	Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		
	245,9	2,2	107,2		126,7	1,1	113,5		
Ishtixon			Nurobod						
	Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		
	278,3	2,5	103,6		936,2	8,5	106,8		
Kattaqo'rg'on			Urgut						
	Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		
	37,6	0,3	105,4		539,5	4,9	132,6		
Qo'shrabot			Toyloq						




Hududlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da

Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida Toyloq (2020- yil yanvar-iyul oyiga nisbatan 132,6 %), Paxtachi (128,2 %), Samarqand (114,1 %), Nurobod (113,5 %) hamda Oqdaryo (110,1 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

Sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi indeksi, % da

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishda o'sish sur'ati, % da





Viloyat jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, %da

Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Samarqand shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 47,1 % ni), hamda Jomboy (10,0 %), Urgut (8,5 %), Samarqand (8,3 %), Toyloq (4,9 %) va tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Qo'shrabot (0,3 %) hamda Nurobod (1,1 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.




















Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Samarqand shahrida (9 357,6 ming so'm), Jomboy tumani (6 242,7 ming so'm) va Samarqand tumani (3 535,2 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (2 780,8 ming so'm) yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Bu borada eng past ko'rsatkich Qo'shrabot (280,3 ming so'm), Nurobod (826,2 ming so'm), Bulung'ur (822,6 ming so'm) va Payariq (798,9 ming so'm) tumanlarida ko'rsatilmoqda.



**Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga to'g'ri
keladigan sanoat mahsulotlari
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish
2021- yilning yanvar-iyul oylarida, ming so'm**



	Sanoat mahsulotlari		Iste'mol mahsulotlari		
	2780,8		1748,7		
Viloyat					
	Sanoat mahsulotlari 9357,6	Iste'mol mahsulotlari 5242,0		Sanoat mahsulotlari 1359,4	Iste'mol mahsulotlari 875,2
Samarqand sh.			Narpay		
	Sanoat mahsulotlari 1792,5	Iste'mol mahsulotlari 1274,5		Sanoat mahsulotlari 798,9	Iste'mol mahsulotlari 363,4
Kattaqo'rg'on sh.			Payariq		
	Sanoat mahsulotlari 1393,3	Iste'mol mahsulotlari 596,1		Sanoat mahsulotlari 1015,3	Iste'mol mahsulotlari 454,9
Oqdaryo			Pastdarg'om		
	Sanoat mahsulotlari 822,6	Iste'mol mahsulotlari 730,0		Sanoat mahsulotlari 1691,2	Iste'mol mahsulotlari 1412,0
Bulung'ur			Paxtachi		
	Sanoat mahsulotlari 6242,7	Iste'mol mahsulotlari 2108,0		Sanoat mahsulotlari 3535,2	Iste'mol mahsulotlari 2725,5
Jomboy			Samarqand		
	Sanoat mahsulotlari 948,1	Iste'mol mahsulotlari 609,0		Sanoat mahsulotlari 826,2	Iste'mol mahsulotlari 738,0
Ishtixon			Nurobod		
	Sanoat mahsulotlari 1001,4	Iste'mol mahsulotlari 889,0		Sanoat mahsulotlari 1793,8	Iste'mol mahsulotlari 1642,6
Kattaqo'rg'on			Urgut		
	Sanoat mahsulotlari 280,3	Iste'mol mahsulotlari 257,3		Sanoat mahsulotlari 2616,2	Iste'mol mahsulotlari 2607,2
Qo'shrabot			Toyloq		



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda
kichik biznesning ulushi**

2021- yilning yanvar-iyul oylarida, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 4 320,3 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 39,2 %ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Bulungʻur, Qoʻshrabot va Nurobod (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Kattaqoʻrgʻon (85,8 %), Urgut (73,7 %) tumanlarida va Kattaqoʻrgʻon (68,4 %) shahrida kuzatildi.

Viloyat hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, eng kichik ulush Narpay (17,6 %), Ishtixon (20,2 %), Samarqand shahar (24,1 %) va Toyloq (30,6 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.




Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari
(2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 7 887 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 706 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 21,6 %ni) Samarqand shahriga, 1157 tasi (14,7 %) Urgut tumaniga, 742 tasi (9,4 %) Samarqand tumaniga, 716 tasi (9,1 %) Pastdarg'om tumaniga, 479 tasi (6,1 %) Ishtixon tumaniga, 370 tasi (4,7 %) Jomboy tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, birlikda

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda




2021- yilning yanvar-iyul oylarida viloyatda 1265 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 176 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 13,9 %) Urgut tumanida, 164 tasi (13,0 %) Samarqand shahrida, 113 tasi (8,9 %) Samarqand tumanida, 109 tasi (8,6 %) Pastdarg'o'm tumanida hamda 92 tasi (7,3 %) Kattaqo'rg'on tumanida tashkil etildi.




Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari
2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonalari joylashgan hududlar 6 taligida Samarqand shahar (1 706 ta), Urgut (1157 ta), Samarqand (742 ta), Pastdarg'o'm (716 ta), Ishtixon (479 ta) va Jomboy (370 ta) tumanlari qayd etildi.

Viloyat miqyosida eng ko'p sanoat ishlab chiqarish korxonalari joylashgan shahar va tumanlar 6 taligi
(2021- yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Viloyat miqyosida eng kam sanoat ishlab chiqarish korxonalari joylashgan shahar va tumanlar 6 taligi
(2021- yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yilning 1- avgust holatiga ko'ra viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar 6 taligida Qo'shrabot (146 ta), Nurobod (178 ta), Narpay (218 ta), Paxtachi (221 ta), Bulung'ur (287 ta) tumanlari hamda Kattaqo'rg'on (284 ta) shahrida qayd etildi.

Sanoat statistikasi
Bo'limi
Tel.: (66) 235-06-80